

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024- yil 14- maydagi 98- son buyrug'iga
ilova

**Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma
statistika kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tartib**

“Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma statistika kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tartib” (keyingi o'rinlarda – tartib) xizmatlar sohasida jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarining to'liqligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan representativ ma'lumotlar olish maqsadida, tashkil etish va o'tkazish mexanizmini belgilaydi.

Mazkur tartib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda–GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uni ishlab chiqishda xizmatlar sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining normativ – huquqiy hujjatlari, xizmat ko'rsatuvchi ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalarda keltirilgan ta'riflar va hisoblash usullaridan foydalanildi.

Mazkur tartib jismoniy shaxslarning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi hissasi to'g'risida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun imkon beradigan ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan foydalanishga mo'ljallangan.

Kuzatuv O'zbekiston Respublikasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi to'g'risida imkon qadar to'liq ma'lumotlarni shakllantirish uchun tadbiq etilgan.

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib GSBPMning yig'ish bosqichi doirasida tanlanmani shakllantirish, kuzatuvni tashkil etish, kuzatuvni amalga oshirish va kuzatuvni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Mazkur tartibda quyidagi asosiy ta'rif va tushunchalardan foydalaniladi:

tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) yo'li bilan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat;

belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxs **yakka tartibdagi tadbirkor** hisoblanadi;

o'zini o'zi band qilgan shaxslar – mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslar;

yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan bozor xizmatlarini ko'rsatish – muntazam ravishda yalpi statistika kuzatuvlari bilan hisobga olinmaydigan va iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) buyurtmasiga ko'ra xizmatlar ko'rsatishni jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar, o'zini o'zi band qilganlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, biroq yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tmagan jismoniy shaxslar) tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat;

jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi turli xildagi xizmatlarni iste'mol qilish hajmini aks ettiradi va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun iste'molchilar to'lagan pul miqdori sifatida aniqlanadi;

tanlanma kuzatuv so'rovnomasi – kuzatuvni o'tkazish uchun har yili tasdiqlanadigan va foydalanadigan statistika kuzatuvi shakli. Bu kuzatuv

predmeti va obyektining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan savollar majmuasidan iborat;

statistik-registrator – ijtimoiy yoki boshqa so'rovnoma ishtirok etuvchi shaxs;

hududiy supervayzerlar – sifatni ta'minlash maqsadida kuzatuv jarayonlarini tashkil etish va holatini tizimli monitoring qilish bo'yicha mas'ul mutaxassis;

tanlanma – bosh to'plamning tanlangan qismi;

bosh to'plam – umumiy sifat ko'rsatkichlariga yoki miqdoriy o'zgaruvchilarga ega jamiyatning barcha o'rganilgan obyektlari va hodisalari to'plami.

3. Kuzatuvning maqsadi yakka tartibdagi tadbirkorlarni tasodifiy tanlov asosida tanlanma ravishda kuzatiladigan to'plam birligi bo'yicha tuman (shahar) hududlarida xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi birliklarning kuzatilgan ko'rsatkichlar bo'yicha bosh to'plamini tavsiflashdan iboratdir.

4. Kuzatuv har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi (keyingi o'rinlarda statistika agentligi deb ataladi) tomonidan tasdiqlanadigan jadvalga muvofiq o'tkaziladi va kuzatilayotgan davr uchun statistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

2- bob. Kuzatuv instrumentariysi

5. Har chorakda kuzatuvni o'tkazish uchun 4 xizmat (jsh) "Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar bo'yicha so'rovnoma" blankasiga asosan o'tkaziladi (mazkur statistika kuzatuvining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika kuzatuv asosida shakllantiriladi).

3- bob. Kuzatuv obyektlarini va tanlangan to'plamni shakllantirish

6. Kuzatiladigan birliklar bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar hisoblanadi.

7. Bosh to'plam tumanlar (shaharlar) bo'yicha, bozor xizmatlari ko'rsatuvchi, soliq inspeksiyalari ma'lumotlariga ko'ra ro'yxatdan o'tgan shuningdek, ro'yxatdan o'tmagan, lekin kuzatuv davomida aniqlangan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

8. Har bir tuman (shahar) bo'yicha mos to'plamning 30 foizdan ko'p bo'lmagan qismini tashkil etadi.

9. Bosh to'plamdagi ulushi bo'yicha yetarli darajada representativligini ta'minlaydigan minimal to'plam hajmi (P_n) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_n = \frac{t(1,96) \times w \times (1 - w)}{DELTA} \times N_i,$$

bu yerda:

P_n – representativ to'plam (kuzatuvga tegishli bo'lgan jismoniy shaxslar soni)ning minimal hajmi;

$DELTA$ – representativ to'plamning ruxsat etilgan maksimal xatosi;

t – representativ to'plam xatosining karraligi;

$w (1 - w)$ – taqsimotning o'zgaruvchanlik darajasi;

N_i – jismoniy shaxslarning jami soni.

Xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar sonining minimal to'plam hajmini hisoblash namunasi mazkur tartibning 2-ilovasida keltirilgan.

10. Kuzatuv natijalari bo'yicha ish joylari, iste'molchilarga ko'rsatilgan xizmatlar turlarining tarkibi, har bir jismoniy shaxsga ko'rsatiladigan xizmatlarning o'rtacha hajmi, xizmat turlari bo'yicha oylik kuzatuv xizmatlari hajmi aniqlanadi.

4- bob. Kuzatuv o'tkazishni tashkil etish va tanlab olish

11. Kuzatuv o'tkazilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilish, uning natijalarini tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi hamda Xizmatlar, transport va axborot infratuzilmasi sohasida tizimli statistik kuzatuvlar bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

12. Kuzatuvni Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan maxsus jadval asosida o'tkazish uchun tayyorgarlik choralari ko'rish va monitoringini olib borish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari tomonidan ta'minlanadi.

13. Kuzatuv Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining tuman (shahar) hududlarida o'tkaziladi.

Ma'lumotlarni yig'ish barcha shahar va tuman statistika bo'limlari tomonidan jismoniy shaxslar joylashgan manzilga bevosita tashrif buyurish (to'g'ridan-to'g'ri so'rov) yoki telefon vositasida so'rov o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni taqdim etish planshet qurilmalaridan foydalangan holda CAPI (Computer Assisted Personal Interviewing) texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.

14. Hududiy statistika boshqarmalari har bir aholi punkti bo'yicha xizmat turlarining nomlari bilan kuzatuv obyektlarining, ya'ni bozor xizmatlarini ko'rsatish markazlari, mahalla guzarlari, savdo komplekslari, dehqon va buyum bozorlari hamda boshqa doimiy ravishda xizmat ko'rsatiladigan joylar, ko'rsatilgan xizmat turlari ro'yxatini 1-ilovaga muvofiq tuzadi.

5- bob. Jismoniy shaxslardan so'rov o'tkazish tartibi

15. Kuzatuv o'tkazish jarayonida statistik-registrator quyidagilarga rioya etishi lozim:

so'rovnoma o'tkazilayotgan jismoniy shaxslarga hurmat bilan yondashgan holda xushmuomala bo'lish va so'rov jarayonining ixtiyoriyligini ta'minlash;

kuzatuv o'tkazishning maqsad va vazifalarini aniq tushuntirish;

so'rovnomaning qat'iy ravishda kuzatuvda belgilangan obyektlar bo'yicha o'tkazish;

jismoniy shaxslardan olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash.

6- bob. So'rovnomaning to'ldirish bo'yicha tushuntirish

16. Agar jismoniy shaxs bir nechta faoliyat turini amalga oshirayotgan bo'lsa, har bir tur bo'yicha barcha xizmat turlaridan tushum miqdori hajmi alohida ko'rsatiladi.

17. Kuzatuv so'rovnomasida birlikda ko'rsatilgan ma'lumotlar yaxlit sonlarda keltiriladi, tushum to'g'risidagi ma'lumotlar bitta o'ntalik belgisi bilan ming so'mda ko'rsatiladi.

18. Tanlanma to'plam umumiy to'plam birliklariga sezilarli ta'sir qilishi sababli uni shakllantirishda quyidagi parametrlar hisobga olinishi lozim:

ushbu obyektga ko'rsatilayotgan barcha xizmat turlarini qamrab olish;

kuzatuv so'rovnomasida nazarda tutilgan xizmat turlari ro'yxatidagi xizmat turlarini qamrab olish (1- ilova).

Shu bilan birga, qamrov tarkibiga turli narxlarda, ham past va ham yuqori bo'lgan narxlarda ko'rsatilgan xizmatlar kiradi.

19. Kuzatilayotgan birliklarning namuna olish sxemasi birliklar to'plamiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun u umumiy to'plamni tavsiflovchi tarzda shakllantirilishi kerak.

Kuzatuv o'tkazilayotgan bozor xizmatlari hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq bo'lishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan representativ ma'lumotlarni olish maqsadida so'rov qilinayotgan jismoniy shaxslar sonini cheklamaydi.

20. Bir xil turdagi xizmat turlari bo'yicha narxlar nomutanosibligi vujudga kelmasligi uchun hududlar o'rtasida tuman (shahar)lar kesimida o'tkazilgan kuzatuv natijalaridan kuzatilgan davrda ma'lumotlar o'zgarishini o'zaro taqqoslash uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

7- bob. So'rovnomani yig'ish, qabul qilish va qayta ishlash bo'yicha ko'rsatmalar

21. So'rov jarayoni vaqtida arifmetik va mantiqiy xatoliklarni tekshirish uchun barcha kuzatuv so'rovnomalarining ma'lumotlari dasturiy ta'minotga avtomat tarzda kiritiladi.

22. Keyinchalik elektron ma'lumotlar bazasi shaklidagi yig'ma ma'lumotlar hududiy supervayzerlarga yuboriladi. Olingan ma'lumotlar ular tomonidan tegishli uslubiy tavsiyalarga muvofiq kuzatilgan shaxslarning bosh to'plamini shakllantirish va jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini aniqlash uchun foydalaniladi.

23. Kuzatuv kunlari hududiy supervayzerlar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

statistik-registratorlar o'rtasida ishlarni taqsimlab berish bilan birga ularning ishlarini umumiy muvofiqlashtirish va nazoratga olish;

kuzatuv obyektlarini aniqlash bo'yicha nazorat qilish;

birlamchi elektron ma'lumotlarni qabul qilish;

kuzatuv jarayonida olinadigan barcha ma'lumotlarning sifatini tekshirish;

kuzatuv jarayoniga yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tezkor choralar ko'rish va zarur hollarda kuzatuv o'tkazish jarayonida bevosita ishtirok etish;

muntazam ravishda joylarga chiqqan holda kuzatuv o'tkazish jarayonida amaliy yordam ko'rsatish.

8- bob. Yakuniy qoidalar

24. Statistika kuzatuvi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 8- iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4742-son qarori

va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011- yil 7- yanvardagi "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" 6-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, xizmatlar sohasidagi barcha faoliyat turlarini qamrab oladi.

25. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bo'yicha kuzatuv jarayonida olingan ma'lumotlar, ularning haqqoniyligi va obyektivligini nazorat qilish maqsadida boshqa statistik ma'lumotlar, xususan, uy xo'jaliklari, kichik biznes, shuningdek, soliq organining ma'muriy ma'lumot manbalari va boshqa statistik kuzatuvlar ma'lumotlari bilan taqqoslanishi lozim.

26. Kuzatuv natijalari statistik maqsadlarda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini hisoblash va O'zbekistonda jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati rivojlanish holatini o'rganish uchun foydalaniladi.

27. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi olingan ma'lumotlar (kuzatuv natijalari) sud-huquq nizolarini hal qilish, davlat xaridlarini amalga oshirish, savdo bitimlari to'g'risida qaror qabul qilish va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallanmagan.

28. Mazkur tartibni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy tartibni qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida 2012- yil 2- maydagi O'zbekiston Respublikasining 328- sonli Qonuni // <https://lex.uz>.

2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // <https://lex.uz>.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 8- iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4742-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 09.06.2020-y.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 16- iyundagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4752-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 16.06.2020-y.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011- yil 7- yanvardagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" 6-son qarori, 1-ilova // <https://lex.uz>.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 22- noyabrdagi 707-sonli "Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan xodimlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish hamda soliq solinadigan daromadlar va chegiriladigan xarajatlar hisobini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga 3-Ilova // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik milliy ma'lumotlari bazasi (<https://lex.uz/>), 2021- yil 23- noyabr.

7. O'zbekiston Respublikasining Davlat standarti O'zDSt 2914:2014 // O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (MST), "O'zstandart" agentligining 2015- yil 19- yanvardagi 05-612-son qarori bilan tasdiqlangan // <https://stat.uz/uz/interaktiv-xizmatlar/statistik-klassifikasiyalar>.

Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy
shaxslarning kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha tartibga
1- ilova

Xizmat turlari ro'yxati

Xizmat kodlari	MST kodlari	Xizmat turlari
01	9602	Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur xizmatlari
02	9602	Kosmetolog xizmatlari va shunga o'xshash boshqa xizmatlar
03	9601	Kir yuvish, quruq va kimyoviy tozalashni tashkil etish, shuningdek, dazmollash xizmatlari
04	9601	Gilam va gilam buyumlarini ta'mirlash va tozalash
05	9529	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni va to'qimachilik galantereyasi buyumlarini ta'mirlash
06	9529	Gazlamalarga naqshlar solish (gazlamalar va kiyim ashyolarini qo'lda bo'yash, gazlamalarga, shu jumladan trafaretli bosma va qo'lda rasm chizish usuli bilan rasmlar solish)
07	9529	Yakka tartibda deraza va eshik pardalarini ta'mirlash, kashtachilik
08	9523	Poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash
09	9529	Kalitlar tayyorlash
10	9529	To'siqlar, haykallar, metall dan yasalgan gulchambarlarni ta'mirlash
11	9522	Inventarni (xo'jalik, sport, baliqchilik va hokazo inventar) ta'mirlash
12	9529	Velosipedlarni ta'mirlash
13	9529	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash
14	9524	Tayyor mebelni yig'ish, ta'mirlash va drapirovka qilish, uyda jismoniy shaxslarning mebellarini ta'mirlash va yig'ish
15	9529	Musiqqa asboblarni ta'mirlash va sozlash
16	9525	Zargarlik buyumlarini ta'mirlash
17	9525	Optika, soatlarni ta'mirlash va metall, plastmassa, sopol, fayans, tosh, kartondan mahsulotlarda o'ymakorlik ishlari (qavariq yozuvlar va tasvirlar tushirish)
18	9522	Radioelektron apparatlar, maishiy mashinalar, maishiy priborlar, ofis mashinalari va hisoblash texnikasini ta'mirlash, o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish
19		Jismoniy shaxslarga kompyuterlarni ta'mirlash va sozlash, litsenziyalangan dasturiy ta'minot o'rnatish
19.1	9511	<i>jismoniy shaxslarga kompyuterlarni ta'mirlash va sozlash</i>
19.2	6209	<i>jismoniy shaxslarga litsenziyalangan dasturiy ta'minot o'rnatish</i>
20	9521	Buyurtmachining uyida bajariladigan maishiy texnikani o'rnatish va ta'mirlash
21	4520	Jismoniy shaxslarning shaxsiy avtomobillarini mayda ta'mirlash, ularga aksessuarlar va avtosignalizatsiya o'rnatish, g'iloflar va pol qoplamalarini tikish
22	4520	Jismoniy shaxslarning avtomobillarini yuvish, avtomobillar kuzovlarini silliqdash
23	9609	Jamoat hojatxonalari xizmatlari
24	9604	Xammom va sauna xizmatlari

Xizmat kodlari	MST kodlari	Xizmat turlari
25	812919	Turar joylarni yig'ishtirish xizmatlari
26		Xonalarni tozalash, jismoniy shaxs hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish
26.1	812919	<i>jismoniy shaxslarning xonalarini tozalash</i>
26.2	813	<i>jismoniy shaxs hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish</i>
27	813	Fuqarolarning dala-hovli va tomorqa uchastkalari landshaftini barpo etish ishlari
28	552	Oilaviy mehmon uylarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etish
29	742	Videoga olish va fotosuratga olish xizmatlari
30	7729	Xo'jalik mollari va uy-ro'zg'or buyumlarini (mebel, idish-tovoqlar, xo'jalik, sport, baliqchilik anjomlari, maishiy texnika, priborlar va boshqalarni) ijaraga berish
31	7739	O'lchov vositalari va ularni prokatga berish
32	855	Uyda repetitorlik qilish – bolalar va kattalar bilan ta'lim fanlari bo'yicha yakka tartibda hamda guruh bo'lib mashg'ulotlar o'tkazish
33	8219	Tahrir xizmatlari
34	743	Tarjima qilish xizmatlari (badiiy adabiyotni tarjima qilish, texnik tarjima, veb-saytlar, filmlar, kompyuter va mobil ilovalar, taqdimotlar, video, audio va reklamalar tarjimasi)
35	9329	Bolalarning o'yinchoq avtomatlari bilan bog'liq xizmatlar
36	8299	Axborotning kriptografik himoyasi vositalarini loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sotish, ta'mirlash va ulardan foydalanish
37	741	Dizayn bo'yicha xizmatlar (grafik, interyer, mebel va hokazolar), shuningdek, chizmachilik-grafika ishlari, shuningdek, rassomlik san'ati
37.1	741019	Veb-dizayner, 3D-dizayner
38		Kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari, kompyuter o'yinlarini tashkil etish, shuningdek, kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va ko'paytirish bilan bog'liq xizmatlar
38.1	6201	<i>kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari</i>
38.2	9329	<i>kompyuter o'yinlarini tashkil etish</i>
38.3	8219	<i>kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va ko'paytirish bilan bog'liq xizmatlar</i>
39		Reklamani ishlab chiqish va joylashtirish
39.1	7311	<i>Reklamani ishlab chiqish va joylashtirish</i>
39.2	631130	<i>Internetda reklama maydoni yoki vaqti</i>
40	7311	Reklama bukletlarini tarqatish, uyda operatorlar tomonidan buyurtmalar qabul qilish
41	6622	Sug'urta agentlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar
42	9001	Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish
43		Tantanali marosimlarni tashkil etish xizmatlari (to'y, yubiley, tug'ilgan kun va hokazolar)
43.1	9001	<i>Tantanali marosimlarni tashkil etish xizmatlari (to'y, yubiley, tug'ilgan kun va hokazolar)</i>
43.2	9002	<i>Tantanali marosimlarni bezash xizmatlari (to'y, yubiley, tug'ilgan kun va hokazolar)</i>

Xizmat kodlari	MST kodlari	Xizmat turlari
43.3	493212	<i>Tantanali marosimlar uchun avtomobil ijarasi</i>
44	7729	Ko'ylak va kostyumlarni, shuningdek, ularga aksessuarlarni prokatga berish
45	8891	Bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo'yicha jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar
46	8810	Bemorlar hamda doimiy ravishda o'zgarlar parvarishiga muhtoj keksa kishilarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo'yicha jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar
47	9313	Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati (sheyping, aerobika, sport seksiyalari, salomatlik guruhlari), trenerlik xizmatlari
48	855	To'garaklar tashkil etish va yuritish
49	9609	Uy hayvonlariga qarash xizmatlari
50	75	Veterinariya faoliyati
51	6831	Riyeltorlik faoliyati
52	7990	Ekskursiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha turistik faoliyat
53	851	Davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati
54	9529	Metallni ta'mirlash ishlari (uy sharoitida metallardan tayyorlangan maishiy buyumlarni ta'mirlash, kalitlarning dublikatlarini tayyorlash, soyabonlarni ta'mirlash, boshqa maishiy buyumlarni oddiy ta'mirlash, metall va tunuka buyumlar ta'mirlash)
55	812110	Uy xo'jaligini yuritish va uy ishlarini bajarish, shu jumladan, turar joylarni tozalash, ovqat pishirish bo'yicha uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish
56	811010	Xususiy shaxslarga bosh xizmatkor va konserj xizmatlarini ko'rsatish
57	5224	Mexanizatsiya vositalarini qo'llamay, uyda bajariladigan yuk ortish-yuk tushirish ishlari
58	532	Shaxsiy transportdan foydalanib, jismoniy shaxslarga tovarlarni yetkazib berish (yuk tashish bundan mustasno)
59	5224	Bozorlar va savdo komplekslarida mayda yuklarni aravalarda tashish
60	869	Xalq tabobati (litsenziyasi bo'lganda)
61	9003	Rassomlik
62	9001	Namoyishlarda kiyimlar modelini namoyish qilish, rasmlari jurnallarda, reklama filmlari va video kliplarda suratga tushirish
63	8219	Matnni yaratish va ishlov berish (kopirayter, rerayter, SEO-kopirayter, SEO-rerayter, musahhih, kontent-menejer, muharrir, e-mail orqali xatlarni jo'natish bo'yicha mutaxassis, spichrayter, transkriber va boshqalar)
64	741	Multimedia, dizayn va san'at materiallarini yaratish va ishlov berish (veb-dizayner, grafika dizayneri, kompyuter o'yinlari dizayneri, interer dizayneri, landshaft dizayneri, liboslar dizayneri, retusher, fotokollajchi, vektor grafikasi muharriri, arxitektor, vizuallashtiruvchi dizayner, ma'lumot dizayneri, interfeys dizayneri, texnik dizayner, moushn-dizayner, banner yasovchi, nashriyot dizayneri, flesher, 3D-dizayner, video muharrir, videooperator, bastakor, ovoz rejissyori, aranjirovkachi, suxandon, foto muharrir va boshqalar)

Xizmat kodlari	MST kodlari	Xizmat turlari
65		Dasturiy ta'minot, axborot tizimlari, mobil ilovalar va veb-saytlarni ishlab chiqish va texnik qo'llab-quvvatlash (dasturchi, dasturiy ta'minotni sinovchi mutaxassis, veb-sahifalarni sahifalovchi, veb-tahlilchi, veb-saytlarni optimizatsiyalash bo'yicha mutaxassis)
65.1	6201	axborot tizimlari, mobil ilovalar va veb-saytlar uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish
65.2	6202	kompyuter texnikasi, axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minot bo'yicha konsalting xizmatlari; mobil ilovalar, axborot tizimlarining dasturiy ta'minotini, texnik qo'llab-quvvatlash
65.3	631112	veb-sayt dasturiy ta'minotini texnik qo'llab-quvvatlash
65.4	631111	Internet manzillarining katta ma'lumotlar bazalarini yaratish va saqlash uchun qidiruv tizimlaridan foydalanadigan veb-saytlarni boshqarish
65.5	631112	veb-sahifa dizayneri, veb-tahlilchi, veb-saytni optimallashtirish bo'yicha mutaxassis
65.6	639910	pullik yoki shartnoma asosida axborot qidirish xizmatlari, yangiliklarni tanlash xizmatlari, davriy nashrlardan parchalar va boshqalar, faktlar va ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirish xizmatlari, pochta ro'yxatlari bundan mustasno
66	7311	Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat (PR–menedjer, internet-marketolog, ijtimoiy tarmoqlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ilgari surish va reklama qilish (SMM), ijtimoiy tarmoq sahifalari administratori, akkaunt–menejer, marketolog, link–menejer, targetolog, kontekst–reklama bo'yicha mutaxassis, direktolog, media rejalashtiruvchi, SMO mutaxassisi)
67	78	Kadrlar tanlash sohasidagi faoliyat (internet–loyihalar bilan ishlovchi menejer, frilanserlar guruhi rahbari, HR–menejer, rekruter, shaxsiy assistent)
68		Onlayn konsultatsiya berish (onlayn–konsultant, onlayn–trener, moliyaviy maslahatchi, webinar olib boruvchi)
68.1	6619	moliyaviy maslahatchi
68.2	692	onlayn maslahatchi (buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha maslahatlar)
68.3	749	ilmiy va texnik faoliyat sohasida veb–seminar boshlovchisi
68.4	869	sog'liqni saqlash sohasida
68.5	855	ta'lim sohasida
68.6	9319	sport sohasida
69	869	Hamshiralik xizmatlari
70	552	Turistlarga uy–joyini qisqa muddatga ijaraga berish (30 kungacha)
71	8299	Davlat xizmatlari ko'rsatishda agent sifatida ishtirok etish
72	8219	Telekommunikatsiya provayderlari, operatorlariga vositachilik xizmatlari ko'rsatish (potensial abonentlarni topish, abonentlik bitimlarini imzolash va xizmatlarni yetkazib beruvchilar yoki abonentlarni axborot xizmatlarini ko'rsatish, xizmatlar yetkazib beruvchilarning ko'rsatgan xizmatlariga to'lovlarni qabul qilish)
73		Ilmiy–tadqiqot, tajriba–konstruktorlik va texnologik ishlar uchun pudrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish

Xizmat kodlari	MST kodlari	Xizmat turlari
73.1	72	<i>Ilmiy—tadqiqot ishlari uchun pudrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish</i>
73.2	71	<i>Tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar uchun pudrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish</i>
74	8292	Tayyor mahsulotga etiketka biriktirish
75		Boshqa xizmatlar
75.1	7732	<i>Qurilish uchun havozaalar ijarasi</i>

Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy
shaxslarning kuzatuvini tashkil etish va
o'tkazish bo'yicha tartibga

2- ilova

Xizmat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining minimal to'plam hajmini amaliy hisoblash uchun ushbu ko'rsatkichlarning parametrlari quyidagi o'lchamlarda qo'llanilishi mumkin:

DELTA – representativ to'plamning ruxsat etilgan maksimal xatosi – 2- banddan 5- bandgacha olinadi. O'rtacha hisob-kitobda *DELTA* 2,3 bandga teng;

t – ehtimollik chegaralaridan $F(t)$ kelib chiqqan holda kuzatuv representativliligining xatolik karraligi. Amaliy hisob-kitoblar uchun *t* qiymati 1,96 ga (ya'ni, deyarli ikki barobar kuzatuv representativliligining xatoligi) teng bo'lgan $F(t) = 0,95$ (95 %) miqdorida qo'llaniladi;

$w \times (1 - w)$ – taqsimlashning variatsiya darajasi, bunda *w* – tanlovdagi kuzatish belgisini taqsimlash ulushi. Kuzatuvdan oldin *w* ning qiymati noma'lum bo'lganligi sababli, uni taqsimlashning variatsiya darajasini maksimal qiymatini olish mumkin bo'lgan $[0,25 = 0,5 \times (1 - 0,5)]$ ga erishish imkonini beruvchi va boshqa teng shartlarda ham tanlov hajmini eng yuqori bo'lishini ta'minlovchi 0,5 miqdorida olish mumkin.

$$P_n = \frac{t(1,96) \times w \times (1-w)}{DELTA} \quad N_i = \frac{1,96 \times 0,5 \times (1 - 0,5)}{2,3} * 44\,980 =$$

$$= 9\,582 \quad kishi \ yoki \ 21,3 \% \left(\frac{9\,582 * 100}{44\,980} \right),$$

bu yerda:

P_n – representativ to'plam (kuzatuviga tegishli bo'lgan jismoniy shaxslar soni)ning minimal hajmi;

DELTA – representativ to'plamning ruxsat etilgan maksimal xatosi;

t – representativ to'plam xatosining karraligi;

$w \times (1 - w)$ – taqsimotning o'zgaruvchanlik darajasi;

N_i – jismoniy shaxslarning jami soni.

Порядок
организации и проведения выборочного обследования физических
лиц, оказывающих рыночные услуги

«Порядок организации и проведения выборочного обследования физических лиц, оказывающих рыночные услуги» (далее - Порядок) определяет механизм организации и проведения выборочного обследования физических лиц с целью получения репрезентативных сведений, необходимых для обеспечения полноты статистических данных об объеме оказанных рыночных услуг посредством предпринимательской деятельности физических лиц по видам экономической деятельности.

Настоящий Порядок разработан в целях обеспечения реализации Постановления Президента Республики Узбекистан от 4 марта 2024 года №ПП-114 «О мерах по организации деятельности Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан, а также в соответствии с требованиями «Типовой модели процессов производства статистических данных» (The Generic Statistical Business Process Model, далее - GSBPM).

